ROMAN POETIKASIDA PSIXOLOGIK TASVIR VA QAHRAMON ONGINING BADIIY TALQINI

(U.Hamdam asarlari misolida)

Gulimoh Ergasheva
TerDPI 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek nasrida roman janri doirasida ayol ruhiyatining badiiy talqini masalasi tahlil qilinadi. Xususan, Ulug'bek Hamdam asarlarida ayol obrazining psixologik, falsafiy va ramziy-majoziy tasvir tamoyillari yoritiladi. Tadqiqotda roman janrining poetik tabiati, adabiy-estetik kanonlar evolyutsiyasi hamda zamonaviy adabiy tafakkur bilan aloqadorlik masalalari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *roman janri, ayol ruhiyati, poetika, psixologizm, ramziy obraz, zamonaviy nasr, falsafiy tafakkur.*

Annotation: This article analyzes the artistic interpretation of female psychology within the framework of the novel genre in contemporary Uzbek prose. In particular, it examines the psychological, philosophical, and symbolic–metaphorical principles of representing female characters in the works of Ulug'bek Hamdam. The study also explores the poetic nature of the novel genre, the evolution of literary-aesthetic canons, and their interrelation with modern literary thinking.

Keywords: *novel genre, female psychology, poetics, psychologism, symbolic image, contemporary prose, philosophical thought.*

Jahon adabiyotshunosligida roman – insonni o'zligi, ijtimoiy muhiti va olam muammolari bilan faol munosabatda tasvirlovchi, odamlar qismati orqali jamiyat joriy holatini poetik tadqiq etuvchi sertarmoq syujet, zalvorli mazmunga ega bo'lgan epik turning murakkab janri sifatida talqin qilinadi. Ayni masalalarni ilmiy asosda o'rganish, roman janrida bashariyatga daxldor mavzular poetik idrok etilayotgani, iste'dodli adiblar tajribasi, badiiy ijod laboratoriyasi asrorini anglash barobarida, badiiy so'zning qudrati va poetik ifoda imkoniyatlari inson ruhiyatini taftish etishga yo'naltirilganini anglatishga xizmat qilishi bilan ham dolzarblik kasb etadi.

Dunyo xalqlari romanchiligida inson taqdiri uning ichki "men"i, jamiyat va olamni anglash maqomi negizida badiiy tahlil etiladi. Romanda inson mavjudligi va dunyo yaxlitligi asl mohiyatini anglash va anglatishga intilish kuzatiladi. Roman qahramoni nafaqat o'z individualligini bir butun olam sifatida chuqur idrok etish jarayonida, balki ijtimoiy muhit va olam bilan ziddiyatga kirishib, borliqni badiiy-falsafiy, ijtimoiy-konseptual yo'sinda idrok etishga intiluvchi ilohiy va bioijtimoiy mavjudot, faol fikriy-hissiy harakatdagi shaxs sifatida ochiladi. Shu tariqa ijodkor yo'qotilgan epik butunlikni qayta tiklaydi.

Roman janri epik tafakkurning eng mukammal shakllaridan biri sifatida inson ruhiyati, ijtimoiy ong va ma'naviy jarayonlarni keng ko'lamda tasvirlash imkoniyatiga ega. Ayniqsa, ayol ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochishda roman janri poetik jihatdan katta imkoniyatlarga ega bo'lib, u ichki monolog, psixologik tafsilot, ramziy obrazlilik va ko'p qatlamli kompozitsiya orqali insonning ichki olamini chuqur talqin etadi.

Zamonaviy o'zbek romanida ayol obrazi endilikda faqat ijtimoiy tip yoki an'anaviy obraz emas, balki murakkab ruhiy-falsafiy fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan Ulug'bek Hamdam romanlarida ayol ruhiyatining badiiy talqini alohida ilmiy tahlilni talab etadi.

Ayol ruhiyatini o'rganish insonning ma'naviy olami, dunyoqarashi va tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni anglashda muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Adabiy jarayon ijtimoiy hayot va madaniy muhit bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Ijtimoiy ongdagi yangilanishlar, qadriyatlar tizimidagi siljishlar, gender masalalariga yangicha qarashlar eng avvalo badiiy adabiyotda o'z aksini topadi. Bugungi adabiyotshunoslik fani o'z obyektiga yangi metodologik nigoh bilan yondashishni, xususan, ayol ruhiyati bilan bog'liq masalalarni psixologik, estetik va falsafiy aspektlarda chuqur tahlil etishni taqozo etmoqda.

O'zbek adabiyotshunosligi, xususan, sho'ro davri adabiyotida ayollar ko'proq ishchi kuchi, "baxtli turmush" egasi sifatida tasvirlangani to'g'risida so'z yuritiladi. Hozirgi davr roman, qissa va hikoyalarida esa ayollarning murakkab qismati hamda ziddiyatli xarakteri, turmush tashvishlari ichidagi holati diqqat markaziga qo'yiladi. Ikki davr adabiyotining ana shu kabi o'ziga xosliklarini U.Hamdam romanlari misolida tadqiq etish esa muhim ilmiy ahamiyatga ega. U.Hamdam ijodining bir qismida ayollar asosiy qahramon sifatida gavdalantirilib, ularning qismati, ruhiyati, ma'naviyati ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va mavqeyi bilan uyg'unlikda tasvirlanib, hayot chorrahalaridagi holatini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushub adiblar ijodidagi o'ziga xos ayni jihatni o'rganish zamonaviy o'zbek nasridagi asosiy tamoyillarni ko'rsatish imkonini beradi.

Istiqlol davri o'zbek adabiyotshunosligining xalqaro maydondagi o'rni va milliy madaniy merosini tadqiq etish, qadriyatlarni anglash zarurati bugungi globallashuv jarayonida badiiy adabiyotning mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, badiiy asarlarning jahon adabiyoti ravnaqidagi o'rnini ko'rsatish keyingi davr adabiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan ijodkorlar merosini o'rganishni taqozo etmoqda. Bugungi madaniy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar jarayoni o'zbek adabiyotshunosligi oldiga ham qator yangi vazifalar qo'ymoqda. "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi"[1]. O'zbek nasrining tipik vakili bo'lmish U.Hamdam romanlaridagi ayollar obrazini o'rganish, ularning kishilar dunyoqarashini boyitish, ma'naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyatini ko'rsatish bizning tadqiqot ishimizning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Zamonaviy o'zbek romani ko'z o'ngimizda yangilanib bormoqda, yangi-yangi poetik qirralari bilan namoyon bo'lmoqda. Mustaqillik davrida roman janrida qalam tebrata boshlagan yosh adib Ulug'bek Hamdam romanlari ko'plab bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda va bu jarayon hanuz davom etmoqda. M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, D.To'rayev, S.Sodiq, Q.Husanboyeva, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, I.Yoqubov, Z.Pardayeva, Sh.Doniyorova, M.Pirnazarova, M.Qo'chqorova, X.Tuliboyev kabi taniqli olim va tadqiqotchilar adib ijodini turli nuqtai nazardan tadqiq etishgan. Ammo adib romanlarida ayol va jamiyat ijtimoiy ziddiyatlarining badiiy ifodasi ilk bor maxsus tadqiq etilmoqda deyish mumkin.

[1] Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – Toshkent, 2022. 20-dekabr.

Ulug'bek Hamdamning har bir asari yozuvchiga xos psixologik talqin va uslub ko'rinishlarini namoyn etadi. Yozuvchining "Muvozanat" romani realistik asar o'laroq o'z tarkibida real qahramonlarning real uslubdagi psixologik tasviriga asoslanadi.Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanining e'tiborga molik jihatlaridan biri shundaki, asar roman janri tarixida shakllangan eng sara uslubiy xossalarni sintezlashga intiladi. Muallif epik tasvir, psixologik tahlil va falsafiy mushohadani bir butun badiiy tizimga keltira olgan.

Roman kompozitsion qurilishida Muhammadjon aka, Yusuf, Amir, Sodiq kabi qahramonlar taqdiri kesishuv nuqtalarida qalb, ruh va ong kechinmalarining murakkab psixologik talqini uyg'unlashadi. Xususan, Yusuf obrazini ochishda muallif ichki dramatizm va ong oqimi elementlaridan samarali foydalanadi. Quyidagi parchada buni yaqqol ko'rish mumkin:

"Yusuf o'shaning (alamzadalikning) tabiatiga quloq tutdi... Shunda his qildiki, u yerda dunyoga – tashqariga tomon yurish haqida shivir-shivirlar avjiga chiqaytgandi. Ya'ni xaos – tashqarining ta'sirida tashqariga nisbatan ichkarida paydo bo'lgan alg'ov-dalg'ovlik endi xuddi o'z egasini tishlab olgan bo'ri bolasi kabi tashqarini ham o'z kelbatiga o'xshatgisi kelardi"[2]. Mazkur fragmentda qahramon ongida yuz berayotgan ichki "xaos" metaforik obraz orqali ifodalanadi. "Bo'ri bolasi" timsoli ruhiy alg'ov-dalg'ovlikning tashqi voqelik bilan ziddiyatini ramziy shaklda ochadi. Bu yerda ichki va tashqi makon qarama-qarshiligi psixologik dramatizmni kuchaytiradi. Muallif subyektiv idrokni obyektiv voqelik bilan parallel tarzda tasvirlab, qahramon ruhiy holatini ko'p qatlamli semantik tizim orqali ochadi.

[2] Hamdam U. Muvozanat. – T.: Sharq, 2007. – B. 155.

Yusufning qaynoq hayot ichkarisida chorasiz qolishi, oila halovatining buzilishi, millat ruhiyatidagi muayyan evrilishlar fonida individual taqdirning izdan chiqishi roman poetikasida real-estetik mohiyat kasb etadi. Bu jarayonda qadriyatlar transformatsiyasi muhim dramatik omil sifatida namoyon bo'ladi. Zamon evrilishi bilan qadriyatlarning mazmuni o'zgaradi, oraliqda qolgan inson esa ichki iztirob va ruhiy inqiroz holatiga tushadi.

Muallif bunday xarakterlarni yaratishda psixologik tahlilning nozik usullaridan foydalanadi. Qahramonning ichki "men"i, uning nutqi va tafakkuri orqali ochiladi. Bu jihat asarda qahramon nutqining xoslanganlik darajasini yuqori bosqichga olib chiqadi.

Jumladan, Yusufning: "Bizga berishi mumkin bo'lganlarning hech birida o'sha savil yo'qmish" degan nutqiy ifodasi uning ichki dunyosidagi umidsizlik, ruhiy iztirob va ma'naviy bo'shliqni ochib beradi. Bu gap tashqi dialog emas, balki ichki monologning qisqa, ammo semantik jihatdan zich ifodasidir. Unda qahramonning dunyoqarashi, kayfiyati va ruhiy parchalanishi mujassam.

Shunday qilib, romanda psixologizm faqat voqeani tushuntirish vositasi emas, balki badiiy konsepsiyaning asosiy komponentiga aylanadi. Qahramon ongidagi ziddiyatlar millat ruhiyatidagi evrilishlar bilan paralellikda tasvirlanadi. Individual fojea ijtimoiy-ma'naviy muhit bilan uyg'un holda talqin etiladi. Natijada qahramon tiynatida ob'yektga nisbatan rang-barang shaxsiy munosabatlar shakllanadi. Shunga asoslanib, aytish mumkinki, yozuvchining boshqa romanlaridan jiddiy tafovutlangan "Muvozanat" asari shakliy-mazmuniy jihatdan yetilgan roman hisoblanadi. Chunki unda voqelik hamda epik ko'lamni baholashga yo'naltirilgan yaxlit nuqtai nazar izchilligi ta'minlangan. Ijodkor badiiy talqin jarayonida bayon

qilishning xotira, psixologik kechinma, lirik chekinish va mono-dialogik usullarini qo'llaydi.

"Muvozanat" romanida Amir obrazi asarning g'oyaviy-estetik markazida turuvchi konseptual qahramonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Adabiyotshunos U.Normatovning "Amir romandagi eng konseptual obraz"[3] degan fikri bejiz emas. Chunki Amir timsolida muallif roman g'oyaviy konsepsiyasini – ma'naviy muvozanat va ruhiy barqarorlik modelini mujassamlashtiradi.

Amirning maqsad va intilishlari Yusuf obraziga nisbatan teran va konseptual xarakterga ega. Agar Yusuf zamonning iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlari girdobida ichki muvozanatini yo'qotib qo'ygan obraz sifatida tasvirlansa, Amir ushbu jarayonlarga falsafiy nigoh bilan qaraydigan, ularning o'tkinchi mohiyatini anglagan shaxs sifatida gavdalanadi. U zamonasining iqtisodiy muammolariga berilmaydi, balki imkon qadar ularning ustida turishga intiladi. Bu esa qahramonning ichki irodasi va ruhiy barqarorligini ko'rsatadi. Amirning hayotiy pozitsiyasi ajdodlardan meros bo'lgan islomiy-ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda shakllanadi. Kam uxlab, kam yeb, kam gapirish – uning hayotiy mezoniga aylangan. Bu jihat tasavvufiy-ma'naviy an'analarning zamonaviy talqini sifatida namoyon bo'ladi. Qahramon ro'zg'orning o'tkinchi hashamatlari va dunyoviy havaslarga chalg'imaydi. Shu jihatdan u zamon "charxpalagi"ning shafqatsiz g'ildiragiga tushib qolgan emas, balki uning ustida turishga intiluvchi ruhiy tip sifatida tasvirlanadi.

Yusuf bilan qiyosda Amirning konseptualligi yanada ravshanlashadi. Yusuf moddiy va ma'naviy muvozanatni yo'qotib qo'yish xavfi ostida qolgan, dunyoviy

[3] Internet materiali: www.ulugbekhamdam.uz

yo'qchiliklar ichida iztirob chekkan obraz bo'lsa, Amir ibodat halovati va ruhiy poklik orqali ichki muvozanatga erishgan timsoldir. Muallif shu tariqa psixologik muvozanatga erishgan insonni o'tkinchi dunyo qiyinchiliklari buka olmasligini badiiy isbotlaydi.

Adib xarakter badiiy tadrijini shakllantirar ekan, hodisotning mantiqiy rivojiga alohida e'tibor qaratadi. Qahramon ruhiyati izchil psixologik tahlil orqali ochiladi. Amir obrazida ruhiy barqarorlik va ichki osoyishtalik tadrijiy tarzda shakllantiriladi. Bu jarayonda muallif psixologizmning quyidagi usullaridan foydalanadi: Ichki mulohaza va mushohada; Ruhiy konfliktni tashqi dramatik keskinliksiz ochish; Qahramon nutqining individuallashtirilishi; Ma'naviy-axloqiy tanlovning ichki asoslarini ko'rsatish.

Roman jozibasi aynan xarakter psixikasining teran ochilishi bilan belgilanadi. Qahramon ongida muqim o'rnashgan "isyan" yoki "alamzadalik"ni bartaraf etish yo'lidagi ruhiy kurash tasviri asarning falsafiy qatlamini kuchaytiradi.

"Muvozanat" romanida funksional-g'oyaviy chizgilar, tasvir va talqin qorishiq tabiati hamda nutqiy manera o'zaro uzviy tizimni tashkil etadi. Asarda hayotning oddiy ikir-chikirlaridek tuyulgan detallar aslida umumiy konsepsiyani to'ldiruvchi badiiy unsurlar sifatida xizmat qiladi. Har bir epizod, har bir xarakter umumiy g'oyaviy markaz – muvozanat tushunchasiga xizmat qiladi.

Mavlono Jaloliddin Rumiyning "har bir inson o'z istak va ehtiyojlarining yonidadir" degan hikmati roman g'oyasini chuqurroq anglashga yordam beradi. Yusufning muvozanat izlab kechgan hayoti – baxt va ruhiy osoyishtalik sari intilish yo'lida kechgan murakkab jarayon sifatida talqin qilinadi. Bu esa kitobxonni mushohadaga, bahs va tafakkurga undaydi.

Roman voqealari o'tmish va kelajak lavhalarining uzviy almashinuvi asosida qurilgan. Bir-birini to'ldirib boruvchi hodisotlar tizimi janriy-kompozitsion yaxlitlikni ta'minlaydi. Bu esa istiqlol davri romanlarida realistik tasvir imkoniyatining kengayganini ko'rsatadi.

Asarda millat kishisiga bo'lgan chuqur hurmat, uning ma'naviy-ruhiy dunyosini e'zozlash tendensiyasi ustuvor. Qahramonlar orqali zamonaviy o'zbek jamiyatidagi qadriyatlar transformatsiyasi, ma'naviy izlanish va ruhiy sinov jarayonlari ochib beriladi.

Amir obrazi romanning konseptual markazi sifatida ma'naviy-psixologik muvozanat modelini ifodalaydi. U Yusuf obraziga qarama-qarshi qo'yilgan holda, ruhiy barqarorlik va iymoniy sobitlik timsoliga aylanadi. Muallif xarakter tadrijini psixologik tahlil orqali ochib, individning zamon bilan murakkab munosabatini badiiy talqin etadi.

Shu tariqa, "Muvozanat" romanida psixologizm, falsafiy mushohada va realistik tasvir uyg'unlashib, istiqlol davri roman poetikasining muhim bosqichini belgilaydi. Romanda qahramon ruhiyati tasviri ichki dramatizm, ramziy-metaforik obrazlilik va xoslangan nutq orqali amalga oshiriladi. Muallif qahramon ongini psixologik va falsafiy qatlamlarda tahlil qilib, zamon evrilishlari sharoitida individning ruhiy inqirozini ochib beradi. Bu esa roman poetikasining zamonaviy talqinini belgilovchi muhim badiiy xususiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Ҳамдам Улуғбек. Мувозанат. – Тошкент: «Шарқ», 2007.*

2. *Норматов У. Насримиз тамойиллари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978;*
3. *Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: «Маънавият», 2000;*
4. *Умуров Ҳ. Бадиий ижод асослари. – Тошкент: «Ўзбекистон» 2001;*
5. Eshmamatovna, E. S. A GLANCE TO THE CREATIVE WORKS OF THE POET TESHA SAYDALIYEV. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 87.
6. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
7. GABRIEL GARCIANING "ATIRGULNING TIKONI" ASARI. (2025). *Ustozlar Uchun*, *85*(7), 223-225. https://journalss.org/index.php/ust/article/view/10194
8. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.
9. O'RTA OSIYODA NOTIQLIK SAN'ATI. (2025). *Ustozlar Uchun*, *85*(7), 39-41. https://journalss.org/index.php/ust/article/view/10091
10. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION.* (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
11. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.

12. Sarvinoz, J. (2025). " ALKIMYOGAR" ASARIDAGI RAMZIY OBRAZLAR TAHLILI. *Global Science Review*, *3*(4), 342-344.
13. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SOZ TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34-37.
14. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
15. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
16. Komilovna M. S. Hydronims Formed by the Method of Syntactic and Transonimization //World Bulletin of Social Sciences. – T. 37. – C. 16-18.